

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 178 (1777), 2026-yil 30-avgust, yakshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



HINDISTON BOSH VAZIRI O‘ZBEKISTONGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi 29-avgust kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.



“Toshkent-Humo” xalqaro aeroportida Hindiston Bosh vazirini davlatimiz rahbari kutib oldi. Oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakat davlat bayroqlari ko‘tarildi, faxriy qorovul saf tordii.

O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasidagi aloqalar yuqori darajadagi siyosiy muloqot,

savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikning izchil kengayib borayotgani bilan ajralib turadi. Ikki tomonlama munosabatlar yildan-yilga yangi mazmun bilan boyib, strategik sheriklik tamoyillari asosida barqaror rivojlanmoqda.

Hindiston O‘zbekiston mustaqilligini 1991-yil 26-dekabrda rasman tan olgan. Ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil 18-martda o‘rnatilgan.

Shu kuni Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

hamrohligida “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurdi.

An‘anaga ko‘ra, oliy martabali mehmon Mustaqillik monumenti poyiga gul qo‘ydi.

Mamlakatimizning o‘tmishi va porloq kelajagi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ifodalovchi Mustaqillik monumenti yurtimizda yuksak ma‘naviyat hamda ezigu qadriyatlar qaror topganidan dalolat beradi. U Vatanimizning teran tarixiy ildizlari va ulkan taraqqiyot salohiyatini yaqqol namoyon etuvchi yuksak timsoldir.

Majmua xalqimizning ko‘p asrlik tarixi, buyuk allomalarimiz va jahongir ajdodlarimizning siymolari, yurtimiz taraqqiyotidagi muhim voqealar o‘z ifodasini topgan. Monument cho‘qqisidagi Humo qushi ozodlik va egzuglik g‘oyalari, xalqimizning olijanob orzu-intilishlarini ifoda etadi.

Majmua bilan qisqacha tanishuv davomida ushbu me‘moriy ansamblning mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma‘lumot berildi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 30-avgust kuni bo‘lib o‘tadi.

Bo‘ljak muzokaralar kun tartibidan O‘zbekiston — Hindiston strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash hamda ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari o‘rin olgan.

Tizimli siyosiy muloqot va madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirish, savdo, energetika, kimyo, geologiya, sog‘liqni saqlash, farnatsevtika, qishloq xo‘jaligi, mashinasozlik va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida aniq dasturlar va kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga ustuvor e‘tibor qaratiladi.

Xalqaro siyosat va mintaqaviy kun tartibining dolzarb masalalari hamda ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasidagi hamkorlik yuzasidan fikr almashiladi.

Uchrashuv yakunida ikki tomonlama hujjatlarining salmoqli to‘plamini imzolash ko‘zda tutilgan.

O‘ZA

Smita PANT: “HINDISTON VA O‘ZBEKISTON MUNOSABATLARI HAQIDA SO‘Z KETGANDA, HATTO OSMON HAM SARHAD BO‘LA OLMAYDI”

Hindiston elchisi Smita Pant Hindiston Bosh vaziri Narendra Modining joriy yil 29-avgust kuni boshlangan davlat tashrifi arafasida “Dunyo” AA muxbiriga eksklyuziv intervyu berdi.

— Elchi xonim, so‘nggi yillarda O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi siyosiy muloqot sezilarli darajada faollashdi. O‘zaro hamkorlikning eng muhim natijalari nimalardan iborat? Bugun Toshkent va Dehli uchun qaysi yo‘nalishlar ustuvor?

— Menimcha, Hindiston va O‘zbekiston munosabatlari haqida so‘z ketganda, hatto osmon bizga sarhad bo‘la olmaydi. Chunki hamkorligimiz ko‘p qirrali. Bizni asrlar qa‘riga borib taqaladigan tarixiy va tamadduniy aloqalar bog‘lab turadi. Xalqlarimiz o‘rtasidagi mustahkam madaniy-ma‘naviy rishtalar baquvvat poydevor vazifasini o‘taydi.

Bundan tashqari, savdo va investitsiyalar, fan va texnologiyalar sohalaridagi hamkorlik ham rivoj topmoqda. Bugun O‘zbekistonga minglab hindistonlik yoshlar ta‘lim olish uchun kelmoqda. Shuningdek, axborot texnologiyalari, sun‘iy intellekt, startaplar va qishloq xo‘jaligi sohalarida birga ishlamoqdamiz.

Davlatlarimiz o‘zaro strategik sheriklik ahamiyatini yaxshi anglab, qadrlaydi. Endi uni yanada yuqori bosqich — keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga olib chiqish istiqbollari ko‘rib chiqmoqdamiz. Uning markazida inson manfaatlariga yo‘naltirilgan

siyosat turadi, ya‘ni har ikki mamlakat xalqlari uchun foydali loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi. Menimcha, bu juda muhim.

Davlatlarimiz rahbarlari o‘zaro aloqalarni mazmunan boyitish va yanada faollashtirish, jumladan, barqaror rivojlanish masalalariga ham katta e‘tibor qaratib keladi.

Xususan, O‘zbekistonda “Yashil makon” loyihasi amalga oshirilmogda. Bizda esa “Ona uchun daraxt ek” nomli loyiha mavjud. Ikkinchida ham millionlab tup daraxt ekishga qaratilgan ezigu maqsad mujassam.

Bu sa‘y-harakatlarda o‘zaro to‘ldiruvchanlik ruhi mavjud. Chunki biz Global Janub mamlakatlarimiz, aholimiz yosh, rahbarlarimiz uzoqni ko‘zlab siyosat yuritadi. Biz barqaror rivojlanish g‘oyalarga sodiqmiz.

Davlatlarimiz yetakchilari tez-tez uchrashib turadi. Hurmatli Bosh vazirimizning O‘zbekistonga tashrifi shular jumlasidan. Bu bizga turli dolzarb masalalarni muhokama qilish imkonini beradi. O‘zaro hamkorlik bo‘yicha kun tartibimiz juda keng bo‘lib, unda mamlakatlarimiz xalqlarining manfaatlariga alohida e‘tibor qaratilgan.

► Davomi 2-betda



SHHT sammiti oldidan



SHHT: MINTAQAVIY XAVFSIZLIK VA STRATEGIK HAMKORLIKNING ZAMONAVIY GEOSIYOSIY TUZILMASI

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi hozir keng ko‘lamli transformatsiya va murakkab evolyutsion rivojlanish jarayonini boshdan kechirmogda.

So‘nggi yillarda globallashuv xalqaro munosabatlarning ustuvor tendensiyasiga aylanib, davlatlar va mintaqalar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy aloqalarning yanada mustahkamlanishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, transport, kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi umumiy manfaatlar va global muammolar atrofida birlashayotgan xalqaro hamjamiyatning shakllanishiga muhim turtki bermoqda.

Shu o‘rinda globallashuv jarayonining ijobiy natijalari bilan bir qatorda, salbiy oqibatlari ham tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy tahdid va xavf-xatarlar endi faqat alohida hududlar doirasida cheklanib qolmay, mintaqaviy va global miqyosda ham ta‘sir ko‘rsatish xususiyatiga ega bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, savdo-iqtisodiy munosabatlarning kengayishi hamda xalqaro moliya va kapital bozorlarining o‘zaro integratsiyalashuvi turli mintaqalardagi iqtisodiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini kuchaytirib, bir hududda yuz berayotgan o‘zgarishlarning boshqa hududlarga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatishiga zamin yaratmoqda.

Davlatimiz rahbari ta‘biri bilan aytganda, “Xalqaro hamkorlikning universal

prinsip va normalarga asoslangan tizimi izdan chiqib borayotgani bugungi kun haqiqatidir. Buning asosiy sabablaridan biri — global darajada davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchning chuqur tanazzulga yuz tutayotgani bilan bog‘liq. Bu esa o‘z navbatida geosiyosiy qarama-qarshiliklarga rag‘bat berib, “blokklarga mansublik” stereotiplarining qayta tug‘ilish xavfini yuzaga keltirmogda. Davlatlar o‘rtasidagi bunday o‘zaro ishonchsizlik jarayoni jahon iqtisodiyotining avvalgi taraqqiyot yo‘liga qaytishini va global ta‘minot zanjirlarining tiklanishini murakkablashtirmogda”.

Globallashuv bilan bir qatorda, mintaqaviylashuv (regionalizatsiya) jarayoni ham zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida muhim tendensiyalaridan biri sifatida shakllanmoqda. Ushbu jarayon yirik mintaqalarga kiruvchi davlatlar o‘rtasida sifat jihatidan yangi hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Natijada davlatlar qo‘shni mamlakatlar bilan barqaror va uzoq muddatli aloqalarni yo‘lga qo‘yish orqali o‘z salohiyatini mustahkamlash hamda mintaqaviy ahamiyatga ega dolzarb muammolarni birgalikda hal etishga intilmoqda.

► Davomi 2-betda

XALQ IRODASI – QONUN – NATIJADORLIK: 35 YILLIK PARLAMENTARIZM SABOQLARI

Tog‘ning salobati uzoqdan bilinadi. Buyuk g‘oyalarning millat taqdiridagi hayotbaxsh qudrati esa yillar o‘tishi bilan yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Bugungi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lining ulug‘vorligi, bunyodkorlik ruhi va xalqimiz erishayotgan yutuqlardagi beqiyos ahamiyatini yillar o‘tgan sari yanada teranroq anglamoqdamiz.

Darhaqiqat, yangi O‘zbekiston falsafasi nafaqat keng ko‘lamli islohotlar asosi, balki milliy taraqqiyotning yangi tafakkurini shakllantirgan, bugungi erishilgan maralarga yetaklagan xalqchil strategiya ekanini vaqtning o‘zi isbotlab bermoqda.

Mustaqilligimizning 35 yilligi “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan bosh g‘oya asosida keng nishonlanmoqda. U taraqqiyot falsafamizning mazmun-mohiyatini to‘la mujassam etgan, desak yangilishmagan bo‘lamiz.

Kimki zamondan ilgariylab fikrlay olsa, kelajakni yaratadi, kimki kechagi andozalar bilan yashasa, tarix izidan ergashishga mahkum bo‘ladi. Prezidentimiz “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi orqali taraqqiyotning eng muhim qonuniyatini amalda namoyon etdi: buyuk o‘zgarishlar, avvalo, tafakkurdan boshlanadi.



Mamlakatimizdagi keng ko‘lamli islohotlar ana shu yangicha tafakkurning amaliy ifodasidir.

Dunyoda ishonch inqirozi, geosiyosiy taranglik va xavfsizlik bilan bog‘liq tahdidlar tobora kuchayib borayotgan bugungi tahlikali sharoitda O‘zbekistonda inson qadriini ulug‘lash va qonuniy manfaatlarini

ta‘minlashni bosh mezon qilib olgan, shiddatli va aniq natijaga qaratilgan demokratik islohotlar izchil kechmoqda. Xalqimiz ortga qaytmas islohotlar natijasini o‘z hayotida, dasturxonida, tobora yuksalib borayotgan tibbiy xizmat va ta‘limda, keng qamrovli ijtimoiy himoyada, umuman, turmush farovonligida yaqqol his etmoqda.

O‘zbekiston mustaqilligining 35 yilligi sanasi faqat bosib o‘tilgan yo‘lni sarhisob qilish emas, balki davlatchilik, jamiyat va parlament qanday o‘zgarganini anglash uchun ham muhim imkoniyatdir.

► Davomi 3-betda



Ta‘lim odimlari

BAXTLI BOLALARNING BAXTIYOR USTOZLARIMIZ

Inson borki, har yili tavallud kunida o‘tgan hayot yo‘liga nazar tashlaydi. Beixtiyor o‘ziga men shu kungacha nimalarga ulgurdim-u nimalarga erisha olmadim degan savolni beradi. Jonajon Vatanimiz davlat mustaqilligiga erishgan kun — 1-sentabrda esa har birimiz, million-million yurtdoshlarimiz birgalikda shu aziz yurtimizning yutuqlaridan faxrlanamiz, o‘tmishi va bugunini qiyoslaymiz.

► Davomi 4-betda



Rahim HAKIMOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi Spikerining
o‘rinbosari

Boshlanishi 1-betda

Bugun bu savolga javob izlar ekanmiz, milliy parlamentarizm tarixiga faqat qonunlar soni yoki parlamentning tashkiliy tuzilishi nuqtayi nazaridan qarab bo‘lmaydi. Uning haqiqiy mazmuni xalq irodasining davlat qarorlariga aylanish mexanizmi qanday o‘zgarganida namoyon bo‘ladi.

Ana shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston parlamentarizmi 35 yillik taraqqiyotini uch muhim bosqichga ajratish mumkin: mustaqil davlatchilikning huquqiy poydevorini yaratish, ikki palatali parlament tizimini shakllantirish va nihoyat, yangi O‘zbekistonda xalqchil, ta’sirchan va natijaga yo‘naltirilgan parlamentarizmni qaror toptirish.

Mustaqil davlatchilikning huquqiy poydevori

Mustaqillikning dastlabki yillarda parlament oldida oddiy qonun ijodkorligidan ancha katta vazifa turgan edi. Yangi davlatning huquqiy arxitekturasini yaratish, hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini qaror toptirish, inson huquq va erkinliklarini kafolatlash, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning huquqiy asoslarini shakllantirish zarur edi.

1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiya xalqni davlat hokimiyatining yagona manbai sifatida e’tirof etib, Oliy Majlisni qonun chiqaruvchi oliy davlat vakillik organi sifatida belgiladi. Birinchi va ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis faoliyati davrida 230 dan ziyod qonun qabul qilindi. Markaziy va mahalliy darajada davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalarining huquqiy maqomini belgiladi, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotni rivojlantirish asoslarini shakllantiruvchi qonunlar milliy davlatchilikning institutsional poydevorini yaratdi.

1994-yilda ko‘ppartiyaviylik asosida o‘tkazilgan parlament saylovi esa vakillik demokratiyasining muhim siyosiy asosini yaratdi. Shu tariqa parlament mustaqil O‘zbekiston davlatchiligidagi huquqiy poydevorini barpo etuvchi muhim institut sifatida namoyon bo‘ldi.

Oliy Majlisning yangi arxitekturasini

2002-yilgi umumxalq referendumini milliy parlamentarizm taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Referendumda ishtirok etganlarning 93,65 foizi Oliy Majlisni ikki palatali parlament sifatida tashkil etish g‘oyasini qo‘llab-quvvatladi.

Qonunchilik palatasi professional qonun ijodkorligi institutiga, Senat esa hududlar manfaatlarini milliy darajada ifoda etuvchi vakillik palatasiga aylandi.

Bu o‘zgarish faqat parlament tuzilmasini ikki qismga ajratish emas edi. U qonun ijodkorligining professionallashuvi, hududiy manfaatlarni hisobga olish va qabul

qilinayotgan qarorlar sifatini oshirishga qaratilgan institutsional islohot bo‘ldi.

Biroq parlamentarizmi eng katta o‘zgarishi hali oldinda edi.

Xalqchil va ta’sirchan tuzilma

So‘nggi o‘n yillik O‘zbekiston milliy parlamentarizmi tarixida alohida davr sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yangi O‘zbekiston g‘oyasi asosida inson qadri, huquq va erkinliklari, farovonligi va salohiyatini ro‘yobga chiqarish davlat siyosatining markaziga chiqdi. Parlament faoliyati mutlaqo yangicha ma’no-mazmun kasb etdi.

Endilikda qonunning qiymati uning hajmi, qancha moddadan iboratligi bilan emas, balki inson hayotini qanchalik o‘zgartirayotgani bilan o‘lchanadigan bo‘ldi. Shu bilan birga, islohotlar shiddatiga mos tarzda qonun ijodkorligi jarayoni ham tezlashdi.

Agar 2009-2016-yillarda Qonunchilik palatasi 305 ta qonun loyihasini ko‘rib chiqqan bo‘lsa, 2017-2025-yillarda bu ko‘rsatkich 1456 taga yetdi. Ya’ni Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi faolligi qariyb 5 baravar oshdi. Deputatlarning qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalanishi ham 65 tadan 163 taga ko‘paydi.

Bu raqamlarning o‘zi maqsad emas. Ular parlament faoliyatining mazmuni o‘zgarayotganini ko‘rsatadi: xalqning muammolari va ehtiyoji parlament kun tartibiga tobora ko‘proq kirib, huquqiy yechimga aylanmoqda.



So‘nggi yillarda milliy parlamentarizm taraqqiyotida Prezidentimizning har yili Oliy Majlisga yo‘llanadigan Murojaatnomasi alohida o‘rin tutmoqda. Murojaatnoma parlament uchun strategik vazifalarni belgilash, qonun ijodkorligi va parlament nazoratini yangi maqsadlarga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O‘zbekiston parlamentida xalq bilan, saylovchilar bilan muloqot qilish deputatlar faoliyati bosh mezoniga aylandi. Har oyning oxirgi haftasida deputatlarning tizimli ravishda saylov okrugiga chiqib, keng aholi qatlamlari va tadbirkorlik subyektlari bilan muloqot o‘tkazish, ular ko‘targan muammo va masalalarga yechim topish, shu jumladan, qonunlarning amaldagi natijadorligini o‘rganish va zaruratga ko‘ra ularni takomillashtirish amaliyoti shakllandi.

Parlamentning 2025-2029-yillarga mo‘ljallangan qonun ijodkorligi dasturida 40 ta muhim qonun loyihasi ishlab chiqilishi nazarda tutilgani esa parlament qonun ijodkorligi tizimni rejalashtirishga o‘tganini ko‘rsatadi.

chiqdi. Shu tariqa yangi tahrirdagi Konstitutsiya parlament vakolatlarinigina emas, mas’uliyatini ham oshirdi.

Kuchli nazorat: eshitishdan yechimga

Parlament nazorati mazmunan o‘zgardi. Bugun uning vazifasi faqat vazir yoki idora rahbari axborotini eshitish bilan cheklanmaydi. Asosiy maqsad — qonunlar ijrosidagi muammolarni aniqlash, mas’ullarning javobgarligini oshirish va fuqarolar ko‘targan masalalarga amaliy yechim topish.

Ayni paytda parlament nazoratining 18 ta shakli amaliyotga joriy etilgan. 2018-yilda



Yangi tahrirdagi Konstitutsiya xalqchil va ta’sirchan parlament faoliyatiga muhim asos berdi. Unga ko‘ra, parlament vakolatlari sezilarli darajada kengaydi. Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari 5 tadan 12 taga, Senatning mutlaq vakolatlari 14 tadan 18 taga oshirildi. Hukumatning parlament oldidagi hisobdorligini ta’minlaydigan qator yangi mexanizmlar mustahkamlandi.

Ayniqsa, Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqish va ma’qullash, davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish, Hisob palatasi hisobotini ko‘rib chiqish, hukumat va uning a’zolari hisobotlarini eshitish, vazirlar nomzodlarini ma’qullash kabi muhim vakolatlarining Qonunchilik palatasiga berilishi parlamentning iro hokimiyati ustidan nazoratini yangi sifat bosqichiga olib

“Hukumat soati” instituti kiritilishi iro hokimiyati va parlament o‘rtasida ochiq muloqotning yangi ta’sirchan mexanizmini shakllantirdi. Shu kunga qadar qariyb 70 marotaba “Hukumat soati” o‘tkazilib, unda hukumatning 77 a’zosi deputatlarning savollariga javob berdi.

Bu raqamlar ortida katta g‘oya mujassam — yangi O‘zbekistonda hukumatning xalq vakillari, demakki xalq oldidagi hisobdorligi amalda ta’minlanmoqda. To‘g‘risini aytish kerak, avvallari parlamentga vazirlar u yozda tursin, o‘rinbosarlarini keltirish ham oson ish bo‘lmagan. Aynan xalqchil siyosat tufayli bugun hukumat rahbariyati, vazirlar va boshqa idoralar yetakchilari tizimli ravishda parlamentda bo‘lib, o‘z faoliyati haqida hisobot va axborot berib bormoqda.

So‘nggi yillarda milliy parlamentarizm taraqqiyotida Prezidentimizning har yili Oliy Majlisga yo‘llanadigan Murojaatnomasi alohida o‘rin tutmoqda. Murojaatnoma parlament uchun strategik vazifalarni belgilash, qonun ijodkorligi va parlament nazoratini yangi maqsadlarga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ilgari mamlakat taraqqiyotiga oid eng muhim vazifalar asosan davlat idoralari kabinetlarida muhokama qilingan bo‘lsa, hozir bu jarayon xalq vakillari ishtirokida, butun xalqimiz ko‘z o‘ngida kechmoqda. Prezident Murojaatnomasi ochiq siyosiy muloqotning mutlaqo yangi madaniyatini shakllantirdi.

Eng muhimi, Murojaatnoma deputatlik mas’uliyatini ham o‘zgartirdi. Endilikda deputat faoliyati davlatimiz rahbari belgilab bergan strategik vazifalarning hududlarda qay darajada bajarilayotganini ta’minlash, ijrosi ustidan ta’sirchan nazoratni amalga oshirish va odamlar hayotida amaliy natijalarga erishishga qo‘shgan hissiati bilan baholalanmoqda.

Raqamlashtirish va sun’iy intellekt davri

Parlament islohotlari endi raqamli transformatsiyadan tashqarida kechishi mumkin emas.

“Project.gov.uz” va “e-qonun.uz” platformalari qonun loyihalarini ishlab chiqish, kelishish va parlamentda ko‘rib chiqish jarayonlarini raqamlashtirishga xizmat qilmoqda. Qonunchilik palatasida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish yangi bosqichga chiqmoqda: huquqiy kolliziyalarni aniqlash, qiyosiy tahlil o‘tkazish, yuridik texnikani takomillashtirish, qonunning amaldagi ijrosini monitoring qilish kabi imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda.

Bugun parlament uchun raqamlashtirish texnik yangilik emas. Bu qaror qabul qilish sifatini oshirish, ochiqlikni kengaytirish va qonun ijodkorligini tezkor hamda dalillarga asoslangan jarayonga aylantirish vositasidir.

Global muloqot maydonida

Yangi O‘zbekiston parlamentarizmining eng katta sifat o‘zgarishlaridan biri Oliy Majlisning xalqaro parlament diplomatiyasidagi roli keskin oshganidir.

Bugun O‘zbekiston parlamenti Parlamentlararo ittifoq, YXHT Parlament assambleyasi, MDH Parlamentlararo assambleyasi, Osiyo parlamentlari assambleyasi va Markaziy Osiyo parlamentlari forumi kabi nufuzli platformalarda faol ishtirok etmoqda. Parlamentlararo hamkorlik doirasida Qonunchilik palatasida 70 ta davlat parlamenti bilan do‘stlik va hamkorlik guruhlari tashkil etilgan.

2025-yil 5-9-aprel kunlari Toshkentda Parlamentlararo ittifoqning 150-yubiley assambleyasi o‘tkazilishi esa bu jarayonning ramziy va amaliy cho‘qqisi bo‘ldi.

Assambleya Markaziy Osiyoda birinchi marta o‘tkazildi. Unda 181 ta milliy parlament va 15 ta mintaqaviy parlament uyushmasi birlashgan Parlamentlararo ittifoq doirasida 140 ga yaqin davlatdan 2 mingdan ziyod ishtirokchi qatnashdi.

Eng muhimi, 2026-yilda Parlamentlararo ittifoqning yillik hisobotida Toshkentdagi 150-assambleya ilg‘or tajriba sifatida qayd etildi. Ushbu tadbir mamlakatimizni global parlament muloqoti markazlaridan biri sifatida namoyon etgan muhim voqea sifatida baholandi.

Bu yerda “markaz” so‘zi geografik tushuncha emas. Gap parlamentlar muloqoti, tajriba almashinuvi, umumiy yechimlar ishlab chiqish va parlament diplomatiyasi tashabbuslari yaraladigan siyosiy maydon haqida bormoqda.

Toshkentning bu maqomini 2026-yil mart oyida Samarqandda o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” parlamentlararo hamkorlik forumi ham yanada mustahkamlandi.

Bugun parlament diplomatiyasi tashqi siyosatning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Oliy Majlis xalqlar va davlatlarning umumiy manfaatlarini asosida dolzarb masalalarni hal etishda, tinchlik, ijtimoiy taraqqiyot va adolatni ta’minlashda nafaqat milliy darajada, balki xalqaro tashabbuslar orqali ham faol qatnashmoqda.

Bu borada O‘zbekiston tashabbusi bilan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish hamda ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirishda parlamentlar rolini kuchaytirish borasida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan ikkita rezolyutsiya muhim ahamiyatga ega.

Bu ikki rezolyutsiyani bir nuqta birlashtiradi: zamonaviy parlament endi faqat qonun qabul qiluvchi organ emas, balki inson taraqqiyoti va ijtimoiy adolatni ta’minlashning strategik institutidir.

Markaziy Osiyoda muloqotning samarali platformasi

O‘zbekistonning parlament diplomatiyasi mintaqaviy o‘lchamda ham yangi mazmun kasb etmoqda. Bunda Markaziy Osiyo parlamentlari forumi alohida ahamiyatga ega.

2023-yilda Qozog‘istonning Turkiston shahrida birinchi, 2024-yilda Xiva shahrida ikkinchi, 2025-yilda Bishkek shahrida uchinchi forum o‘tkazilishi Markaziy Osiyo parlamentlari o‘rtasida muntazam muloqot va amaliy hamkorlik mexanizmlari izchil rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Ushbu platforma mintaqaviy kelishuvlarni qonunchilik va parlament nazorati vositalari orqali qo‘llab-

“35 yillik taraqqiyot yo‘li Oliy Majlisning tobora xalq bilan hamnafas, qonun ijodkorligida professional, nazoratda ta’sirchan, qaror qabul qilishda ilm va dalillarga tayangan, xalqaro maydonda faol va eng muhimi, har bir qarori ortida inson manfaatini ko‘ra oladigan parlament sifatida qaror topayotganini ko‘rsatmoqda.”

quvvatlash, tajriba almashish va umumiy manfaatlariga daxldor masalalar bo‘yicha muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Yangi vazifa: strategiya va natija

2026-yilda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi o‘tgan yillar natijalari, zamonaviy global chaqiriqlar va mamlakat taraqqiyotining yangi vazifalarini hisobga olgan holda yangilandi. Yangilangan strategiyada natijalarning o‘lchanishi, monitoringni raqamlashtirish, davlat organlarining mas’uliyati va strategik rejalashtirishning uyg‘unligiga e’tibor kuchaytirildi.

Bu natijaga yo‘naltirilgan davlat boshqaruvi modeliga o‘tishni anglatadi. Bunda islohotlar samaradorligi, avvalo, ularning har bir inson, har bir oila, har bir tadbirkor va har bir hudud hayotiga ijobiy ta’siri orqali baholanadi.

Ushbu jarayonda parlament nafaqat qonun chiqaruvchi organ sifatida namoyon bo‘ladi. Balki u islohotlarning samaradorligi va izchilligini, jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlovini, amalga oshirilishi parlament nazoratiga olinishini va fuqarolar bilan doimiy muloqotni ta’minlashning eng muhim institutiga aylanmoqda.

Endi parlament nafaqat “Qanday qonun qabul qilamiz?” degan savolga, balki “Bu qonun strategiyadagi qaysi maqsadga xizmat qiladi?”, “Uning samarasi, natijadorligi qanday o‘lchanadi?”, “Fuqarolar, jamiyat hayotida qanday o‘zgarish bo‘ladi?” degan savollarga ham javob topishga intilmoqda.

35 yillik parlamentarizm tarixidan chiqariladigan eng muhim xulosa shuki, parlamentning evolyutsiyasi aslida davlat va xalq munosabatlari evolyutsiyasidir.

Kecha parlamentning asosiy vazifasi mustaqil davlatning huquqiy poydevorini yaratish edi. Bugun esa uning vazifasi yaratilgan huquqiy poydevorni inson farovonligi, iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy adolat va davlat boshqaruvi samaradorligiga yo‘naltirishga qaratilmoqda.

Mustaqilligimizning 35-yili O‘zbekiston parlamentarizmining shakllanish, institutsionallashish va sifat jihatidan yangilanish tarixidir. Bir palatali parlamentdan ikki palatali tizimga, vakillik funksiyasidan ta’sirchan parlament nazoratiga, sifatli qonunlardan ularning natijadorligiga, milliy darajadagi faoliyattan global parlament diplomatiyasigacha bo‘lgan yo‘l bosib o‘tiladi.

Ayniqsa, so‘nggi o‘n yillikdagi izchil islohotlar bu jarayonga mutlaqo yangicha mazmun-mohiyat, yangicha sur‘at va shiddat baxsh etdi. Yangi O‘zbekistonda parlament xalq ovozi qonunga, qonunni esa amaliy natijaga aylantiradigan institut sifatida rivojlanmoqda.

Oliy Majlisning xalqaro parlament tashkilotlaridagi faolligi O‘zbekiston parlamentining milliy chegaralardan tashqaridagi ta’siri ham ortib borayotganini ko‘rsatmoqda.

Shu ma’noda, 35 yillik taraqqiyot yo‘li Oliy Majlisning tobora xalq bilan hamnafas, qonun ijodkorligida professional, nazoratda ta’sirchan, qaror qabul qilishda ilm va dalillarga tayangan, xalqaro maydonda faol va eng muhimi, har bir qarori ortida inson manfaatini ko‘ra oladigan parlament sifatida qaror topayotganini ko‘rsatmoqda.

Zero, yangi O‘zbekistondan kuchli parlament faqat kuchli davlatning belgisi emas. U xalq irodasini davlat siyosatining real natijasiga aylantiradigan eng muhim demokratik institutdir.

2026-yil 30-avgust, 178-son

“**I**qtidorli bolalarga yuqori darajada ta'lim berish, iste'dodini qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish va yuksaltirish, dunyo miqyosida yuqori darajadagi kadrlarni yetishtirish maqsadida tashkil etilgan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning berayotgan samarasiga, o'quvchilar erishayotgan yuksak darajadagi yutuqlarga bugun ko'plab mamlakatlar havas bilan qarayotir.



Pokiza AHMEDJONOVA,
Halima Xudoyberdiyeva
nomidagi ijod maktabi direktori,
senator

Boshlanishi 1-betda

Mustaqillikka erishishimizdan chamasii ikki-uch yil oldin endi ish boshlagan yosh pedagog edim. O'shanda shahrimizda, menimcha, 20 yil deganda bittagina yangi maktab qurildi. Bu maktab yangiyu, ammo moddiy-texnik bazasi maqтанarli ahvolda emas, sharoitlari ham hamingqadar edi. Ko'p narsani o'z kuchimiz bilan qilishga majbur bo'lgandik.

Bugungi maktablarga nazar solar ekanman, suratiyu siyrati o'zgacha: binolar ham, moddiy-texnik baza ham zamon talabiga mos bo'lishi uchun davlatimiz katta sarmoya sarflamoqda. O'tgan yili birgina Sirdaryo viloyatining o'zida 47 ta maktab, 46 ta bolalar bog'chasi to'liq ta'mirlandi, yangilari qurildi. Joriy yilda ham ta'mirlash va qurilish ishlari bajarilayotgan maktab va bog'chalar soni bundan kam emas.



Ta'lim odimlari

BAXTLI BOLALARNING AXTIYOR USTOZLARIMIZ

Mustaqilligimizning ilk yillarida minglab bog'chalar yopilib, binolari sotib yuborilgandi. Bolalarning bog'chaga qamrovi atigi 7 foiz edi. Keyingi yillarda tizimda ro'y bergan eng katta islohotlardan biri bog'chalar sonini ko'paytirish, faoliyatini rivojlantirish va qamrovini oshirish bo'ldi. O'tgan o'n yilda bola uchun bilimlar poydevori bo'lgan minglab maktabgacha ta'lim tashkiloti bunyod etildi va qisqa muddatda qamrov qariyb 80 foizga yetdi. Bu qanchadan qancha ota-onalarning mushkulini oson qildi. Eng muhimi, bolalarni maktabga tayyorlash tizimi takomillashtirildi.

Qirq yillik pedagogik faoliyatimdan kelib chiqib, mamlakatimiz ta'lim tizimidagi yutuqlarimiz bilan birga o'tgan davrdagi ba'zi muammolarni aytishni ham o'rinli deb bilaman. Xususan, mustaqillikka erishgan yillarimiz maosh kamligi tufayli qancha bilimli o'qituvchilar, ayniqsa, oilasining asosiy boquvchisi bo'lgan erkak muallimlar maktablarni tark etdi. Ta'lim masalasi ikkinchi darajaga tushib ketgan yillarning ham guvohi bo'ldik. O'shanda bu qanchalar og'ir oqibatlariga olib kelishini biz, pedagoglar yuragimizda kuchli og'riq bilan his qilardik.

Shukrki, sohadagi tub islohotlar har bir ilm ahlining yuragidagi ana shu og'riqlarga malham, bilim va ilmga ishonch, ta'lim taraqqiyoti uchun yuksak imkoniyat yaratdi. Umumiy o'rta va umuman ta'lim sohasida tubdan yangilanishlar qilindi. Eng birinchi e'tibor muallimlar mehnatini



qadrlashga qaratildi. O'qituvchi maqomi belgilab qo'yildi. Qo'shimcha yuklamalar va pedagoglarning asosiy faoliyatiga to'siq bo'lgan va eng muhimi, o'qitish sifatiga katta salbiy ta'sir ko'rsatib kelgan majburiyatlardan ozod etildi.

Hozir o'qituvchining faqat o'zi va o'quvchi ustida ishlashi uchun barcha sharoit yaratib berilgan. Uning malakasi va mahorati ham moddiy, ham ma'naviy rag'bat topdi. Ayni omillar tufayli sohaga yangicha ta'lim berish salohiyatiga ega, chuqur bilimli pedagog kadrlarning yangi avlodi

kirib keldi. E'tiborlisi, erkak o'qituvchilar yana maktabga qaytdi. Bugun nafaqat ixtisoslashtirilgan maktablarning, balki oddiy umumta'lim maktablarining o'qituvchilari ham 10-20 million so'mgacha oylik maosh olish imkoniga ega. Faqat ularning o'zida harakat va intilish bo'lsa, kifoya.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan mamlakatimizda yaratilgan o'ziga xos, unikal ta'lim tizimi esa bugun ko'plab mamlakatlar uchun namuna bo'layotir. Ta'lim uzluksizligini, ya'ni bog'chadan tortib, ilmiy darajaga erishgunga qadar

jarayonlardagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlash tizimidagi natijadorlikka erishish yo'lida amalga oshirilgan eng katta, yuqori samarali islohotdir.

Shuningdek, iqtidorli bolalarga yuqori darajada ta'lim berish, iste'dodini qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish va yuksaltirish, dunyo miqyosida yuqori darajadagi kadrlarni yetishtirish maqsadida tashkil etilgan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning berayotgan samarasiga, o'quvchilar erishayotgan yuksak darajadagi yutuqlarga bugun ko'plab mamlakatlar havas bilan qarayotir. Xususan, biror mamlakatda o'xshashi yo'q bo'lgan ijod maktablari ham dunyo e'tiboriga tushgan yangiliklardan biri bo'ldi. Masalan, kamina rahbarlik qilayotgan Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabiga xorijiy kasbdoshlarimiz tez-tez kelib turadi va ular ham iste'dodli o'quvchilar uchun yaratilgan ushbu imkoniyatlarni yuksak darajada e'tirof etadi.

Ha, hozirda ijod maktablari minglab o'g'il-qizlar uchun bir vaqtning o'zida chuqur umumta'lim olish hamda o'zlari qiziqqan ijodiy yo'nalish bo'yicha mahoratlarini oshirish uchun ulkan imkoniyatlar maskani bo'lib xizmat qilmoqda. O'nlab o'quvchilarimiz adabiyot, teatr san'ati, jurnalistika va boshqa ijodiy yo'nalishlarda katta yutuqlarga erishmoqda.



Ayniqsa, mualliflik kitoblari chop etilishi, turli tanlovlar va olimpiadalar yaxshi ishtiroki uchun rag'batlantirilishi o'g'il-qizlarning o'z ustida ishlashi va intilishini yanada kuchaytiradi. Maktabimizning drama to'garagi a'zolari "Teatr ibratxonadir" shiori ostida o'tkazilgan tanlovning respublika bosqichida ketma-ket ikki yildirki, birinchi o'rinni egallab kelmoqda. Joriy yilda g'olib sifatida ularga Xitoyga sayohat yo'llanmasi tuhfa etildi.

Bu yil beshinchi bor bitiruvchilarni kuzatdik. Besh yildirki, barcha bitiruvchimiz nufuzli oliy o'quv yurtlarining talabasi bo'lib kelmoqda. Ular orasida jahonning nufuzli universitetlarida tahsil olayotganlar ham bor. Bugungi eng zamonaviy sharoitlarga ega, hatto rivojlangan mamlakatlarning havasini keltirayotgan maktabda ishlab, bolalarimizga yuqori darajada bilim berayotganimiz mustaqilligimizning eng katta natijalaridan biridir. Har jihatdan jadal taraqqiy etayotgan O'zbekistonimizdagi baxtli bolalarning baxtiyor ustozlari qatorida ekanimizdan faxrlanamiz.



Inson qadri

Tizim qanday o'zgarmoqda?

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, pensionerlar va nafaqaxo'r'larga g'amxo'rlik qilish, ularga munosib turmush sharoitini yaratish davlatimizning eng muhim vazifalaridan. Shu nuqtayi nazardan, sohaga oid farmon va qarorlar imzolanishi, jumladan, Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi hamda pensiya va nafaqalarni to'lash tizimini takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini tubdan yaxshilashga zamin yaratmoqda.

Pensioner uchun pensiya miqdori qanchalik muhim bo'lsa, uni qachon va qanday olishi ham shunchalik ahamiyatli. Dori-darmon, oziq-ovqat, kommunal to'lovlar va kundalik xarajatning katta qismi aynan shu mablag' hisobidan qoplanadi. Shuning uchun pensiyaning bir necha kun oldin yoki keyin olinishi ham keksa inson hayotida sezilarli ahamiyat kasb etishi mumkin.

So'nggi yillarda yurtimizda pensiya va nafaqalarni yetkazib berish tizimi sezilarli darajada o'zgardi: ilgari asosan naqd pul shaklida berilgan bo'lsa, bugun pensiyani bank kartasi orqali olish vaqtini tejash, xavfsizlikni ta'minlash hamda masofaviy to'lovlarini oson bajarish imkonini beruvchi eng ommabop usulga aylandi.

2023-yil yanvarda pensiya va nafaqa oluvchilarning 51 foizi mablag'ini naqdsiz shaklda olgan bo'lsa, 2024-yil yanvarga kelib, bu ko'rsatkich 71 foizga yetdi. 2025-yil yanvarda ushbu ulush 78 foizni, 2026-yil yanvarda esa 86 foizni tashkil etdi.

Bu yil avgust holatiga ko'ra, mamlakatimizdagi 4,5 million pensiya va nafaqa oluvchining 4,1 millioni yoki 90 foizi mablag'ini plastik karta orqali olmoqda. Demak, atigi bir necha yilda pensiya va ijtimoiy to'lovlarini naqdsiz olish ulushi 51 foizdan qariyb 90 foizga yetdi. Bugun har o'n pensiya va nafaqa oluvchining to'qqiz nafari uchun mablag'ni olish sayyor kassani kutib bilan emas, balki mablag'ning bank kartasiga tushishi bilan bo'liq.

Bu shunchaki naqd pul o'rini bank kartasi egallayotganini emas, aslida pensiya va nafaqa oluvchilarning o'z mablag'ini mustaqil boshqarish imkoniyati kengayayotganini anglatadi.



Oy boshida pul pensionerning ixtiyorida

Naqdsiz pensiya va nafaqa olishning asosiy qulayliklaridan biri mablag'ning oy boshidayoq pensiya va nafaqa oluvchi tasarrufiga o'tkazilishidir. Pensiya va nafaqani bank kartasi orqali oladigan fuqarolar mablag'ni oyning dastlabki besh kunida oladi. Bu kunlar dam olish yoki bayram kunlariga to'g'ri kelgan taqdirda ham to'lov o'z vaqtida amalga oshiriladi.

Prezidentimizning 2022-yil 7-apreldagi "Davlat pensiyalari, nafaqalar, kompensatsiyalar va Pensiya jamg'armasi hisobidan qoplanadi. Bu esa bankomatdan naqd pul yechishdagi komissiya xarajati to'liq qoplash imkonini beradi. Ya'ni pensiya va nafaqa oluvchi kartaga o'tgani uchun naqd puldan mutlaqo voz kechishi shart emas. Aksincha, unda tanlov paydo bo'ladi: mablag'ni karta orqali ishlatish yoki zarur qismini naqdlashtirib olish.

Eng katta farq esa vaqtda. Naqdsiz shaklda pensiya va nafaqa oluvchi fuqaro mablag'ini

oy boshida oladi va uni mustaqil tasarruf eta boshlaydi. Pensionerlar uchun ham shuni qulay. Yillar davomida pensiyasini naqd pulda olib, ro'zg'or tebratishga o'rgangan. Bank xodimlari har oy mahallalarga kelib, tasdiqlangan grafik bo'yicha pensiya tarqatib kelgan va bu tizim hozir ham davom etyapti. Ilgari pensionerlar mahallasiga navbat qachon kelishini poylab, keyin mahalla idorasi yoki tayinlangan joyda yig'ilib, navbat kutib o'tirardi. Tabiiyki, bu kutishlar ba'zan aholining ancha-muncha vaqtini olardi. Bugun esa pensiyani bank kartasida olish aholiga mutlaqo yangicha yengillik va erkinlik bermokda. To'g'ri, avvaliga ko'pchilik plastik kartalardan foydalanishga bir oz ikillangan. Chunki yillar davomida shakllangan odati o'zgartirish oson kechmaydi. Lekin vaqt o'tib, bu tizimning afzalligini o'z tajribasida ko'rganidan so'ng aholi zamonaviy yechimlar ishini qanchalik yengillashtirishini anglab yetdi.

Naqdsiz to'lov ortida katta infratuzilma shakllanmoqda

Albatta, pensiyani kartaga o'tkazishning o'zi yetarli emas. Pensioner kartadagi mablag'ni kundalik hayotda ishlata olishi uchun bankomat, to'lov terminali va boshqa moliyaviy infratuzilma ham mavjud bo'lishi kerak. Bu yo'nalishda ham so'nggi yillarda sezilarli o'sish kuzatilmoqda.

2026-yil avgust holatiga ko'ra, O'zbekistonda muomaladagi bank kartalari soni 75 milliondan oshgan. Savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalarida 450 mingdan ziyod to'lov terminali, mamlakat bo'yicha esa qariyb 47 mingta bankomat va infokiosk ishlamoqda. Birgina 2026-yilning yanvar-iyul oylarida to'lov terminallari orqali 387 trillion so'mdan ziyod mablag' aylangan. Bu raqam karta endi faqat bankdan pul olish vositasi emas, balki kundalik hisob-kitobning odatiy qismiga aylanayotganini ko'rsatadi.

Pensiya va nafaqa to'lovlariga xizmat ko'rsatishda Xalq bankining o'rni alohida. Naqd pensiyalarni aholiga yetkazib berish vazifasi ham aynan ushbu bank zimmasiga yuklatilgan. Shu bilan birga, bank naqdsiz pensiya oluvchilar uchun zarur infratuzilmani ham kengaytirib bormoqda.

Markaziy bankning 2026-yil iyun holatidagi banklar kesimidagi ma'lumotlariga ko'ra, Xalq bankida 3087 ta bankomat va 162 ta ADM mavjud bo'lib, bu tijorat banklari orasida eng yuqori ko'rsatkichdir.

Ayrimlar nega naqd pulga ehtiyoj sezadi?

Pensiya oluvchilarning qariyb 11 foizi hali ham mablag'ini naqd oladi. Rasmiy ko'rsatkichlar yaxlitlanganini hisobga olganda, gap qariyb yarim millonga yaqin inson haqida ketmoqda. Ularning

barchasini "karta ishlatishni xohlamaydiganlar" sifatida baholash adolati bo'lmaydi. Pensiya va nafaqa oluvchilar orasida yoshi ancha ulug', bank kartasi yoki bankomatdan mustaqil foydalanishga qiynaladigan, harakatlanish imkoniyati cheklangan, nogironligi bo'lgan, doimiy parvarishga muhtoj yoki yotoq holatidagi insonlar ham bor.

Bir pensioner uchun kartadan foydalanish oddiy jarayon bo'lishi mumkin. Boshqasi uchun esa bankomatgacha borishning o'zi muammo. Kimdir PIN kodni eslab qolish yoki bankomatda operatsiya bajarish uchun farzandining yordamiga muhtoj. Ayrim keksalar uchun esa qo'ldagi naqd pul hamon kartadagi raqamdan ko'ra tushunarli va ishonchli.

Shu sababli naqd pensiyaga ehtiyojini faqat odat bilan izohlash to'g'ri emas. Ayrim insonlar uchun bu shunchaki tanlov emas, balki yoshi, salomatligi yoki yashash sharoitidan kelib chiqadigan zarurat. Bunday fuqarolarga pensiyani Xalq bankining sayyor kassalari belgilangan grafik asosida yetkazadi. Naqd pensiya va nafaqa to'lovi oy davomida tasdiqlangan grafik bo'yicha amalga

yetkazilganini tasdiqlash, hisob-kitoblarning shaffofligini ta'minlash va turli suiste'molchiliklar hamda "soxta to'lovlar" xavfini kamaytirishdir.

Texnologiya insonga moslashishi kerak

So'nggi yillarda pensiya tizimidagi o'zgarishlarning yo'nalishi aniq: naqdsiz pensiya asosiy to'lov usuliga aylandi. Bank kartalari, terminallar va bankomatlar soni muntazam ko'paymoqda.

Pensiya ta'minoti shunchaki oddiy bank xizmati emas. Bu tizimdan smartfon va bank kartasidan bemalol foydalanadigan 60 yoshli inson ham, uyidan mustaqil chiqa olmaydigan 90 yoshli pensioner ham foydalanadi. Shuning uchun keyingi bosqichda raqamlashtirishning asosiy vazifasi barchani yagona texnologiyaga majburan o'tkazish emas, balki turli imkoniyatga ega insonlar uchun bir xil darajada qulay xizmat yaratish bo'lishi kerak.

Kartadan foydalana oladigan pensioner mablag'ini oy boshida olib, o'z xohishiga ko'ra tasarruf etsin. Naqd pulga ehtiyoj sezadigan, harakatlanishi cheklangan yoki bank infratuzilmasidan mustaqil foydalana olmaydigan pensioner esa pensiyasini ortiqcha ovoragarchilikkor olsin.

Bu jarayonda Xalq bankining vazifasi ham faqat pensiya mablag'ini yetkazib berish bilan cheklanib qolmaydi. Millionlab pensionerlarning naqd va naqdsiz to'lovlar o'rnatidagi tanlovini amalda ta'minlash, sayyor kassa xizmatini saqlash bilan birga bank infratuzilmasini kengaytirish muhim ijtimoiy vazifaga aylanmoqda. Zero, ijtimoiy sohada raqamlashtirishning haqiqiy natijasi qancha karta tarqatilgani, nechta bankomat o'rnatilgani yoki qancha jarayon Face ID orqali amalga oshirilayotgani bilangina o'chanmaydi. Eng muhim mezon — o'zgarishlar inson hayotini qanchalik yengillashtirayotganida.

Pensiya tizimidagi bu kabi tizimli islohotlar davlat ijtimoiy siyosatining inson manfaatlariga yo'naltirilganini amalda isbotlamokda. Raqamlashtirish va zamonaviy bank xizmatlarining ijtimoiy sohaga integratsiya qilinishi mamlakatda aholi farovonligini oshirish va nuroniyalarimizga munosib g'amxo'rlik ko'rsatish borasidagi davlat siyosatining muhim uzviy qismidir.

Rustam PO'LATOV,
moliyaviy tahlilchi

Kamolot pillapoyasi

Ta'lim-tarbiya va farzandlar kamoloti yo'lida qilingan har bir harakat kelajagimizni yorug' va nurlı manzillar tomon yetaklaydi. Bugun mamlakatimizda yaratilayotgan ilkoniyatlar, ilgari surilayotgan tashabbuslar va ezgu ishlarning salmog'i kundan kunga ortib bormoqda.



UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORLARINI TARBIYALASH – HAM BURCH, HAM MAS’ULIYATIMIZ



Muxsin HOJIYEV,
Guliston davlat universiteti
rektori, texnika fanlari doktori,
professor

Pedagogman, ta'lim sohasida ishlayman, umuman olganda, kelajagimiz uchun befarq emasman degan har bir inson aslida tarbiyachidir. Zotan, bugungi tezkor zamonda chetda tomoshabin bo'lib turishga yoki ta'lim-tarbiya masalasi faqat mutaxassislarning ishi deb qarashga hech kimning haqqi yo'q.

Katta o'q-atilayotgan bilan yig'i O'zbekistonini buniyod etmoqdami. Bu jarayonda esa ta'lim sohasi vakillari, millat ertasining tarbiyachilari hisoblangan ziyolilar bir yuqadan bosib chiqib, mehnat qilishi dardkor. Biz ham universitetimizni jamoasi bilan mamlatakatimiz rivojiga munosib hissa qo'shish maqsadida javlon urib mehnat qilayotirmiz. Ayniqsa, so'nggi o'ni yillikda ta'lim sohasiga e'tibor pedagoglarni, professor-o'qituvchilarni shukrona bilan yashash va kasbidan faxrlanishiga damok. Majburiy mehnat, paxta yig'imi va boshqa qora ishlardan ziyolilarning ozod etilgani — mana endi ularga chinakam ziyoli sifatida munosabatda bo'linayotganidan dalolat. Hozir bor e'tiborimizni ta'lim sifatini ko'tarish, xalqaro hamkorlik loyihalari amalga oshirish, yoshlarning ilmiy va ijodiy salohiyatini yuksaltirishga qaratayvpmiz.

Universitetimizda 2017-yilda talabalar soni 3550 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilga kelib, 15 ming 242 nafarga yetdi. Yig'it-qizlarimiz 64 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishida ta'lim olmoqda. 24 ta magistratura mutaxassisligida 293 nafar talabada dastlabki ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanmoqda. 2026/2027-o'quv yilida 3250 nafar abituriyent o'qishga qabul qilinadi. To'g'ri, bu raqamlar kishini xursand qiladi. Qancha yoshlarimiz oliy ma'lumoti bo'lsa, shuncha yaxshi. Ammo har bir raqam ostida minglab tadqiqotlar turganini inobatga olsak, bu jarayon barcha professor-o'qituvchilarimiz katta mas'uliyat bilan etadi.

Son bor joyda sifat, sifat bor joyda son o'sishi kerak. Bu o'rinda oliygohimizning ilmiy salohiyati yildan yilga o'sayotganini Guliston davlat universiteti kreativ fikrlovchi yoshlar va o'z tadqiqoti bilan yurt taqdiriga, xalq manfaatiga xizmat qilishni burch deb bilgan olimlar markaziga aylanayotganidan dalolat. 2023-yilda ilmiy salohiyatimiz

40,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 42,3 foizga, 2025-yil yakunlariga kelib esa 50,1 foizga yetdi. 2026-yilning birinchi choragida ilmiy salohiyat 53 foizni tashkil etdi. Ilmiy kadrlar tarkibi ham sifat jihatidan sezilarliy yangilandi. 2023-yilda universitetda 157 nafar falsafa doktori faoliyat yuritgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ularning soni 205 nafaqga yetdi. Ayniqsa, yosh olimlar ulushining ortishi universitetda ilmiy maktablarni barqaror rivojlantirayotganini ko'rsatadi. Xususan, 40 yoshgacha bo'lgan PhD darajasiga ega olimlar soni 39 nafardan 72 nafaqga yetdi, ayol PhD olimlar soni esa 28 nafardan 59 nafaqgacha oshdi. Bu esa universitetda gender muvozanatini ta'minlash hamda yosh tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash siyosati samarali amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Albatta, bu raqamlar tizimli ravishda o'sib, ilmiy tadqiqotlar qamrovi kengayib boradi.

Mamlakat ertasi ilm-ma'rifat, kitob bilan
nuriydi. Bu o'rinda yurimizda kitobga e'tibor,
kitobxonlarga ko'rsalatyotgan g'amxo'rlik
har galgidan yuksalib bormoqda. Nafaqat
universitetimiz, balki viloyatimizdagi barcha
mahalla yoshlari, xususan, uyushmagan yoshlar
uchun ham xizmat qiluvchi, ularning bo'sh
vaqtlarini mazmunli tashkil etuvchi kutubxona
barpo etish qalbmizdagi niyatlardan biri edi. Bu
niyatni yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib
hamda aloqaga oshirdik. Hozir bir vaqtning o'zida
700 nafar kitobxonga xizmat qiluvchi universitet
axborot-resurs markazi faoliyat yuritmoqda.
Bugun kutubxonamizga keluvchilar hamda
undan foydalanuvchilar soni universitet talabalari
sonidan oshib ketgan. Sababi, chekka-chekka
mahallalardan, qishloq va tumanlardan o'quvchilar,
yoshlar kelib, markaz bilan tanishmoqda, kitob
mutolaa qilmoqda. Kitobxonlik loyihalariida faol
ishtirok etmoqda.

Niyatimiz universitetimiz talabalari orasidan yana ko'plab "Yosh kitobxon" tanlovi g'oliblari – "Prezident sovg'asi" sovrindorlari yetilib chiqsin. Prezidentimiz oldimizga asosiy vazifa sifatida yoshlar tashabbuslarini o'rganishni qo'yib bergi. Yangi O'zbekistonda har bir rahbar yosh avlodning takliflarini o'rganishi, ularni qo'llab-quvvatlashi, ularning dardu g'amli bilan yashab, muammolarini bartaraf etishi orqali Uchinchi Renessans bunyodkorlarini tarbiyalashga munosib hissa qo'shgan bo'ladi.

Bu o'rinda biz — oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlari yoshlarni eshitish bo'yicha namuna bo'lib, yuksak islohotlar jarayonida Prezidentimizga yuksak hisoblikimizni bildirish uchun

Prezidentimizda qanot b' o'linimizni dardkor.
Gulistan davlat universitetida har payshanba kun
yoshlar bilan uchrashuv o'tkazishini an'angaya
aylantirdi. Bu uchrashuvlar ayni kunlarda
"Dolzab 90 kunlik" doirasida ham davom
etmoqda. Yoshlar bilan har galgi uchrashuvda
ularning ko'zlari yonib turishini, ilmi va iste'dodi
yo'lida yangi g'oya hamda tashabbuslar bilan
chiqishlarini ko'rib, dilim yayraydi. Ana shu
onda mamlakatimizdagi yoshlar siyosati bo'yicha
qilinayotgan islohotlar qay darajada muhim ekanini
yana bir karra chuqur his qilaman. Filologiya
fakulteti talabarlari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda
universitetimizning "Mushoira" klubi a'zolari
"Ustoz, sh'e'rlarimizni klub mashg'ulotlarida
ancha charxlab boryapmiz. Taklifimiz —
ijodimizni to'plab, bir kitob qilsak va nashr
ettirsak", deganida, sh'e'rlaridan aytib berganida
qalbmiz qovchunga to'ldi. Tinch va osoyishta
yangi O'zbekistonga mana shunday sh'e'rlar, mana
shunday shodon yoshlar yarashgadi, albatta. Taklif
iirrosi yuzidan kitob tavrosida qirishildi.



Bugun Guliston davlat universitetining ijodkor talabalari qalamiga mansub she'rlar jamlangan salkam 200 sahifali kitob nashr etilish arafasida turibdi. Bu ham mustaqilligimizning 35 yilligiga universitetimiz nomidan ijodkor yoshlarimizning bir tufasi bo'ladi, desam mulog'ab bo'lmas. Universitetda ijodiy muhitni yanada rivojlantirish yo'lda harakat qilyapmiz. Natijada ijodkor o'g'il-qizlarimiz hali talaba bo'lishiga qaramay, davlat mukofotlariga munosib ko'rilmqoda. Oliyoghimiz yoshlaridan adabiyot yo'nalishida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan Yorqinjon Hayitboevning, xuddi shu yo'nalishda Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan Zarnigorxon Abdulimovning, san'at yo'nalishida esa Jasmina Sheraliyevaning mukofotlangani universitetimiz ijodkor yoshlar uchun qanot bo'layotgan dalolat.

Bundan tashqari, Turkmanistonda o'tgan "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari" fani bo'yicha ochiq xalqaro internet-olimpiadasiida 2 talabamiz g'oliblikni qo'lga kiritdi. "Bukhara International Mathematics Olympiad – 2026" da ishtirok etgan universitetimiz jamoasi 3 ta kumush, 2 ta bronza medal va 1 ta jamoaviy kubok sohibi bo'ldi. Qozog'istonning Olmaota shahrida matematika, fizika va informatika fanlari bo'yicha o'tkazilgan 22-xalqaro Jautikov olimpiadasiida esa jamoamiz 1 ta oltin, 1 ta kumush va 2 ta bronza medalni qo'lga kiritdi. Biz bu natijalar bilan to'xtab qolmaymiz. Yoshlarimizning yutuqlari bardavom bo'lishi uchun yanada ulkan rejalarni maqsad qilganimiz.

Yangi O'zbekiston qanday qadrga ega
ekaniini sportchilarimiz dunyo arenalarida
namoyon etib kelmoqda. Buni yaqindagina
mundailla O'zbekiston jamoasining ilk bor
ishrtkor etgani va bu Markaziy Osiyo davlatlari
orasida birinchi davlat sifatida tarixga kirgani
munda futbol bo'yicha jahon chempionatidagi
birinchi o'zbek golini sirdaryolik vakilimiz
Abbosbek Fayzullayev darovaza kirirgani
ko'rsatib qo'ydi. To'g'risi, birinchi marotaba
bo'lgani sababli g'alabaga erisha olmagandiriz,
ammo hech narsa o'z-o'zidan bo'lmagisini, yana
mehnat qilib, o'z ustimizda ishlashimiz lozimligini
tushundirdi. O'ylaymanki, hali terma jamoamiz
mundailla munosib g'alaba qozongan kunlarni
ham ko'ramiz. Sababi, O'zbekiston – yoshlarga
katta imkoniyatlar beradigan, butun dunyo ha
bilan qarayotgan mamlakat.

O'tgan o'quv yilida Guliston davlat universitetida barcha sharoitga ega sport maydoni qur rostdi. Maydonda futbol, yengil atletika, stol tennisi va boshqa sport turlari bilan shug'ullanish uchun hamma imkoniyatlar yetarli. Mamlakatimizda har yili turli tanlovlar, "Besh muhim tashabbus" olimpiadlari o'tkazib kelinmoqda. O'tgan yili oliy ta'lim tashkilotlari talabalari o'rtasida o'tkazilgan "Besh muhim tashabbus" olimpiadasiing respublika final bosqichiga Guliston davlat universiteti mezbonlik qildi. Natijalarga ko'ra esa universitetimizning futbol jamoasi mini futbol bo'yicha barcha hudud jamoalarini ortda qoldirib, respublika chempioni degan nomga sazovor bo'ldi. Albatta, bu yutuqlar bilan cheklanib qolmay, o'z ustimizda yanada ishlab, universitetimiz talabalarining sport shohisidagi yutuqlari bardavom bo'lishi uchun harakat qilishimiz dardkor.

Iste'dodli yoshlarni munosib rag'batlantirish natijadorlikni oshiradi. Universitetimizda yuqori natijalar egallab, shaxsiy namuna ko'rsatayotgan, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov hamda loyihalarda faol ishtirok etayotgan yoshlarimiz juda ko'p. Ularni o'z vaqtida moddiy va ma'naviy rag'batlantirib bormoqdamiz. Ammo rag'batning yana boshqa usullarini topish kerakligi hamda buning ortidan yoshlarning motivatsiyasini oshirish ustida ancha vaqt o'ylab yurdim. Sababi, bugun yoshlar bilan ishlash, ularni yurti taqdiriga munosib hissa qo'sha oladigan qilib tarbiyalash, daxldorlik hissiini yuksaltirish, ularni har qanday yurt g'oyalardan asrash har qachongidan muhim. Men har safar qaysidir ishini boshlashdan oldin mutolaa qilishni o'ld tushiga aylantirganman. Ana shunday mutolaa jarayonlarining birida bir g'oya kelib qoldi. Universitetning eng faol, namunali, tashabbuskor va yuqori natijalar qayd etgan talabalarining xonadonlariga — bevosita ularning o'ta-onalariga yurti qaratgan holda maxsus yorliqlar ilsak-chi deb o'ylab qoldim. Yon daftarimga bu yorliqning nomini "Sharaf yorlig'i" deb yozib qo'ydim. Albatta, har qanday o'ta-ona o'z farzandidan

iftixor tuysa, sharafiansa, farzandning ham qalbi, ham kelajagi nurga to'qladi. Yoriq ichiga "Ushbu xonadonda Guliston davlat universitetining eng namunali talabasi tarbiyalangan muhtoram otamona istiqomat qiladi", deb yozdik. G'ayb yo'liga taklif esa harakatga aylanib, har bir fakultetimizdan ushbu yoriqlarga munosib, eng namunali talabalarni tanlay boshladik. Barcha fakultet dekanlari oilalarga, xonadonlarga borib, eng namunali talabani ota-onasiga ana shu yoriqliq iftixor bilan topshirdi. O'sha onda barcha onalarning mijasida yosh ko'rdik. Bu faxr va quvunch yoshi edi. Albatta, namunali talabani tanlashda bugun har bir hududda ilgari sur'atlovchi obodonchilik, talabani tabiatga, atrof-muhitga, mahallay qishloqning obodligiga munosib hissa qo'shganini ham alohida e'tiborga oldik. Shu zaylda eng namunali talabalarni tarbiyalagan obod xonadonlarni universitetimizning "Sharaf yoriqlari"ga munosib ko'rdik. Natija kutganimizdan ziyod bo'ldi. Bugun Guliston davlat universiteti talabalari ana shunday "Sharaf yoriqlari" bilan ota-onalarini xursand qilish yo'lidagi o'zaro sog'lom raqobat asosida o'z ustida ishlab, ta'lim va ijtimoiy faollik reytinglarini oshirib bormoqda.

Obodlik ko'ngildan boshlanadi. Shunday ko'ngillardagina bunyodkor g'oyalar bo'y cho'zadi. Har bir xonodan, har bir ko'cha, har bir majmua obod bo'lsa, yurtimiz chiroyigina chiroy qo'shiladi. Buning uchun esa, avvalo, har birimiz shaxsiy namuna ko'rsatishimiz kerak. Universitetimizning bir guruh falok talabalarini volontyorlik klubi ostida biralshrtirdik. Uning



nomini O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov xotirasiga hurmat tariqasida, shoir she'ri nomiga hamohang tarzda "Jilg'a" deb atadik. Albatta, bugun klub a'zolari universitetimiz atrofidagi mahallalarda, viloyatning turli qishloqlarida yolg'iz nuroniyonlar va imkoniyati cheklangan insonlarning xonadonlarida hashar ishlarini tizimli bajarib kelmooda.

Bugun mamlakatimizni dnyo hamjamiyati e'tirof etmoqda. Sababi, yangi O'zbekiston nafaqat islohotlar zmini, balki ana shu islohotlarning amaldagi tasdig'ini namoyon etgan adolat, haqiqat va totuvlik maskanidir. Uning ma'rifiy

majmua-siga aylangan Islom sivilizatsiyasi markazi — milliy ma'naviyatimizning, yuksak e'tiqodimizning va jahon tamadoniga ko'shgan munosib hissamizning ko'zgusi. Jamoamiz bilan markazda bir emas, bir necha marta bo'ldik va iste'dodli yoshlarimizni rag'batlantirish sifatida ularni Islom sivilizatsiyasi markaziga sayohatini tashkil etdik. Har bir yoshlar bilan uchrashuvda markazda bo'lgan talabalarimizdan so'rasam, ko'ng'larini to'liq tib-toshib gapirib beradi. Ha, davlatimiz rahbari yurtimizning boy merosi haqida ana shunday to'liq-tib-toshib, iftixor bilan gapirishimizga imkon yaratib berdi. Buning uchun esa cheksiz shukrona keltirib, bunday majmualar bilan yoshlarimizni ko'proq tanishtirishimiz kerak. Men ushbu markazda bo'lib, ko'ngg'i 10 yildagi islohotlar ko'lami naqadar keng ekanini chiqur his qildim.

Yaqinda, mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligini nishonlaymiz. O'tgan fursat davomida yurtimiz dunyo xaritasidagi o'rnini yanada mustahkam egallab, O'zbekiston qanday deryo ekanini butun olamga ko'rsatib qo'ydi. Ayniqsa, so'nggi 10 yillikdagi odilona, xalqchil siyosat yangi O'zbekistonning diplomatik qiyofasini yanada jozibador ko'rinishga keltirdi. Joriy yil xizmat safari bilan Xitoyda bo'ldim. U yerdagi bir qancha oila bilan 10 yil muassasalari rektorlari bilan muzokaralar o'tkazdik. Uchrasgan har bir hankormiriz mamlakatimiz haqida juda jiliq fikrlarni bildirdi. Ayniqsa, ulardan birining "Sizning yurtingiz bilan hankormiriz qilish bish uchun sharaf. Chunki Prezidentingizning ochilik siyosati yangi O'zbekistonning chin ma'noday yangi rivojlanish bosqichiga chiqqidan dalolatidir", deb ta'kidlagani meni faxrlantirdi. Bugun O'zbekistonga, xususan, Sirdaryoga xorijiy delegatsiyalarning keti uzilmayapti. Universitetimizda ham xitoylik hankormirizning tashriflari manfaatli bo'lmoqda. Axborot texnologiyalari va fizika-matematika fakulteti huzurida yangi markaz, filologiya fakultetimiz huzurida xitoy tili markazini tashkil etdik. Shuningdek, Samad Vurg'un nomidagi ozarbayjonshunoslik auditoriyasiga asos solindi. Avvallari professor-o'qituvchilarning xorijiy xizmat safariga borishi shov-shuili voqea bo'lar edi, ammo bugungi imkoniyatlar natijasida guruh-guruh talabalarimiz bir qararasig Xitoyda, bir qarasangiz dunyoning yana boshqa bir mamlakatida almashun davsturlarda ishtirok etishmoqda. Bu esa yoshlarimiz uchun yurtimizdagi imkoniyatlar xalqaro eshiklarni ham ochayotigandan dalolat.

Har yili mamlakatimiz mustaqilligini nishonlaydigan munavvar kunlar arafasida Prezidentimiz tegishli farmonlariga imzo chekib, turli sohalardagi bir guruh fidoyi va vatansparvar yurtdoshlarimizni yuksak darajada mukofotlari bilan taqdirlaydi. Men ana shu jarayonda mamlakatimiz ziyolilarining munosib rag'batlantirilayotgani, qilingan mehnatga yuksak javob qaytatoyiganidan xursand bo'laman. Bu yil aynan ulug' bayramimiz shukhi kezi b yurtdoshlar kunda Prezidentimizga Qirg'iz Respublikasining I darajali "Manas" ordeni berilgani va uni shaxsan qardosh mamlakat rahbari samimiyat va cheksiz hurmat bilan taqdim etgani meni, avvalo, bir fuqaro, ziyoli pedagog sifatida nihoyatda xursand qildi va xayolimdin bir o'y o'tdi. Prezidentimiz har yili mustaqillik ayyomida yurtdoshlarimizni xursand qilar edi, ularning ko'nglini tog' qadar ko'tarardi. Mana, bu yil esa qo'shnilarimiz mamlakatimiz yetakchisini shu qadar e'zozlab, yangi O'zbekiston islohotlarini e'tirof etib, o'zlarining eng yuksak mukofotlarini taqdim etayotgani — davlatimiz rahbarining azmu shijoatlariga berilgan odilona baho va xalqimizning samimiy duolari natijasidir. Albatta, yurt ishiq bilan javon urilgan mehnat, bu yo'lda safarbar etilgan umr hammaniz uchun hanciv o'z makdri.

Shu o'rinda bir savol berish o'rinlidir. Xo'sh, mustaqillik o'zi nima? Mustaqillik millat ertasi uchun negiz demakdir. Mustaqillik har tomonchi e'zgulik deb nomlanadigan dengiz, har qoyasi Vatan deb nomlanadigan tog', har tomir xalq deb nomlanadigan daraxt kabi'dir. Har niholga qarov kerak bo'lgani kabi mustaqillikni ham asrash, qadriga yetish, himoya qilish lozim. Shubhasiz, "Yangi O'zbekiston" g'oyasi mamlakatimizni mustaqilligini yanada mustahkamlash uchun keng imkoniyatlarni eshigini ochib, Vatanimiz nomini dunyo hamjamiyati oldida yanada zabardast tutib bermoqda. Biz mana shu yurt uchun munosib hissa qo'sha olishimiz dardkor. Bunda xizmatimiz yoshlarimiz o'zbekona tarbiyasi, xalqaro standartlarga asoslangan sifati ta'limida namoyon bo'ladi.



Baxtiyor XOLMATOV,
Fanlar akademiyasi Zoologiya
instituti direktori,
II darajali “Sogʻlom avlod
uchun” ordeni sohibi

Dildagi gaplar

Mukofotlanganim haqidagi xabarni katta quvunch va hayajon bilan qabul qildim. Yakshamba tongida uyda onam bilan suhbatlashib o'tirarkanman, kutilmaganda Fanlar akademiyasidan qo'ng'iroq bo'lib, davlat mukofoti bilan taqdirlanganim aytili. Rosti, hayajondan bir zum nima qilishimni bilmay qoldim. Hatto onamga ham biridan ayta olmadim. Bir oz nafasimni roslab, keyin "Onajon, Prezidentimiz davlat mukofoti bilan taqdirlabdi", dedim. "Sidqildidan qilingan mehnat hech qachon e'tibordan chetda qolmaydi", deya volidam duo qildi. Onamning shu so'zlari va duosi men uchun mukofotning o'zi kabi qadrlil bo'ldi.

Mazkur yuksak mukofotni biologik xilma-xillikni o'rganish, ilmi-fanni rivojlantirish hamda ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash borasidagi kamtarona mehnatimiz e'tirofi deb bilaman. Faoliyatim davomida respublikamizning qator oliy ta'lim muassasalarida bakalavr va magistrnlarni tayyorlashda ishtirok etib kelyapman. Bugungacha bevosita ilmiy rahbarligimda 6 shogirdim falsafa doktori va 2 nafari fan doktori ilmiy darajasini muvaffaqiyatli yoqladi. Men uchun,

avvalo, shogirdlarimning ilmiy izlanishlari samara berib, mustaqil tadqiqotchi sifatida shakllanayotgani katta quvunch va yutuq.

Bundan tashqari, so'nggi besh yilda Xitoy Fanlar akademiyasining Pekin shahridagi Zoologiya institutida falsafa doktoriingi dissertatsiyasini yozlash uchun 7 nafar yosh olimni yubordik. Ulardan 4 nafari dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, tugun ilmiy tadqiqotini davom ettirmoqda. Bu, bir jihatdan, yosh olimlarimizning salohiyatini ko'rsatsa, ikkinchi tarafdin,

mamlakatimizda zoologiya va biologik xilma-xillik yoʻnalishidagi ilmiy maktabni xalqaro darajaga olib chiqish uchun yaratilgan imkoniyatlarning samarasi deb oʻylayman.

Shuning uchun bu mukofotni shaxsiy yutuqni sifatida emas, balki ustozlarim, hamkasblarim va shogirdlarim bilan birga uddalab kelayotgan ishlarimizga berilgan yuksak baho sifatida qabul qilaman. E'tirof zimmasizga yanada katta mas'uliyat yuklaydi va kelgusida yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy kadrlar tayyorlash hamda biologik xilma-xillikni o'rganish va muhofaza qilish borasidagi ishlarimizni yanada kuchaytirishga undaydi.

Oldimida turgan asosiy vazifa
erishilgan natijalar bilan cheklanib qolmay
O'zbekistonning hayvonot dunyosini
o'rganish va muhofaza qilish bo'yicha
ilmiy maktablarni yanada rivojlantirish,
mamlakatimiz faunasini kelajak avlodlar
uchun asrab qolishga munosib hissa
qo'shishdir. Kelgusi villarda bir nechta

muhim va strategik yoʻnalishga alohida eʼtibor qaratmoqchimiz.

Birinchidan, mamlakatimiz hayvonot dunyosini to'liq va tizimli o'rganish, uning bioxilma-xilligini baholash hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish. Shu maqsadda mamlakatimiz hayvonot dunyosining yagona raqamli ma'lumotlar bazasini yaratishni muhim vazifalardan biri sifatida belgilaganmiz. Unda yurtimizda uchraydigan hayvon turleri, ularning tarqalishi, soni, ekologiyasi, muhofaza holati va ildiy ma'lumotlari jamlanadi. Bu baza nafaqat olimlar, balki tabiatni muhofaza qilish sohasi, davlat boshqaruvi va ta'lim tizimi uchun ham muhim ilmiy-axborot manbasiga aylanishi kerak.

Ikkinchi muhim vazifamiz — O'zbekiston faunasiga bag'ishlangan ko'p jildli fundamental monografiyani tayyorlash. Bu asarda mamlakatimiz hududida uchraydigan hayvonlarning tur tarkibi, sistematikasi, tarqalishi, biologiyasi, ekologiyasi va muhofaza holati kompleks voritiladi. Shu

bilan birga, kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlarni muhofaza qilishning ilmiy asoslarini kuchaytirish, iqlim o'zgarishi va inson faoliyatining hayvonot dunyosiga ta'sirini o'rganish, xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish ham asosiy vazifalarimiz qatorida.

**Eng katta maqsadimiz
esa Zoologiya institutini
Markaziy Osiyoda bioxilma-
xillikni o'rganish va
muhofaza qilish bo'yicha
yetakchi ilmiy markazlardan
biriga aylantirish.**

Buning uchun bizda ilmiy salohiyat ham, tajriba ham, eng muhimi, o'z ishiga sadoqatli olivlar jamoasi ham bor. Shu ma'noda, davlat mukofoti biz uchun yakuniy natija emas. Aksincha, bu yanada katta maqsadlar sari intilish, xalqimiz va Vatanimiz oldidagi mas'uliyatni chuqur his etish uchun katta rag'batdir.



Sayyora TO'YCHIYEVA,
“Ma’rifat” targ’ibotchilar
jamiyati a’zosi, professor

“Mustaqillik to’yi” munosabati bilan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda “Ma’rifat” targ’ibotchilar jamiyati a’zolari safida Namangan sari yo’l oldik.

Dovrug’i taralgan ulkan tafakkur sohiblari — Yolg’in To’raqulov, Mahmud Salohiddinov, Ergash Otaxonovning yurti, qadim o’zbek san’ati, madaniyati va adabiyotiga ulkan hissa qo’shgan Parda Tursun, Zafar Diyor, Husniddin Sharipov, Habib Sa’dulla, Sora Eshonto’rayeva, Habiba Oxunova, Kamoliddin Rahimov, O’rinbov Nuraliyev, Yoqub Ahmedov, Mirza Azizov, Hoshim Arslonov, Olimjon Salimov, Akmal Nur, Ziyovuddin Mansur, Zulayho Boyxonova, Mehri Abdullayeva singari iste’dodlarni voyaga yetkazgan tabarruk maskandir bu yurt.

Farg’ona vodiysi shimolida, Shimoliy Farg’ona kanali va Namangansoy kesishgan yerda joylashgan Namangan shahri bayram arafasida ikki xalqaro ma’rifiy-madaniy anjumanga mezbonlik qildi.

Festival manzillari

“Yagona Vatan, yagona xalq bo’lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan ezgu g’oya ostida boshlangan festival Uychi tumanining Jiydakapa mahallasidan qo’r oldi. “Shukronalik” bayram tadbirida ishtirok etgan poytaxt ziyollari va mahalla ahli tomonidan guzarga rayhon, gul va daraxt ko’chatlari ekdi. Yigirmaga yaqin oilaga “Ibratli oila” maqomi berildi. Shodiyona xonadon egalaringan farzandlari tomonidan ijro etilgan she’r va qo’shiqlarga ulandi.

Ortiqboy ota va Xolposhsha aya to’qqiz farzandni oq yuvib, oq tarab elga qo’shdilar. Ularning katta xonadonlari hamisha mahalladoshlar va qo’ni-qo’shnilar bilan gavjum. O’zbekiston xalq maorifi a’lochisi Ortiqboy otaning ibratli umr yo’li barcha jiydakapaliklar uchun namunadir. Oddiy kimyo-biologiya o’qituvchisi bo’lib yigirma yildan ortiq tumanidagi 18-umumta’lim maktabida ishlagan, keyinroq o’n yil davomida Jiydakapa qishloq kengashiga raislik qilgan ustozning viloyat va respublikada yuzdan ortiq shogirdi bor. Farzandlari Ma’sudaxon va Manzuraxon o’qituvchi, G’ulomjon, Tojiddin

va A’zamjon muhandis, Rivojiddin quruvchi, Zayniddin tadbirkor, Narimonjon olim, Muiyassarxon iqtisodchi. Piru badavlat oilada 40 nevara, 111 evara, 12 chevara voyaga yetmoqda.

Yangi Namangan tumani “Mingterak” mahalla fuqarolar yig’inida istiqomat qiluvchi Hamidxon Dadaboyev oilasi ham shunday mehnatsevarlik, obodonchilik va tabiatga mehr-muhabbatni o’zida mujassam etgan ibratli xonadonlardan biri. O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan yoshlar murabbiysi, qator yillar mahalla raisi bo’lib ishlagan Hafizxon Dadaboyev va Rahimaxon ayaning tarbiyasini olgan bu oila ulardan meros mehnatsevarlik va elga beminnat xizmat qilish fazilatlarini o’z farzandlari hayotida davom ettirib kelmoqda. Hamidxon aka o’z ko’li bilan yaratgan serhosil va to’kin bog’ avvallari 15 sotixdan iborat tashlandiq yer edi, bugun esa yuzlab turdagi gul va daraxt yashnab o’sayotgan fayzli maskanga aylandi. Bog’da turli archalar, rus qayinlari, hind sireni, kashtan, magnoliya, gortenziya, georgina, budleya kabi ko’plab noyob gul va manzarali daraxtlar parvarishlanmoqda. Xonadon hududidan 50-60 metrgacha uzoqlikda sun’iy ariq o’tkazilgan bo’lib, undan unumli foydalaniladi. Bog’ning etak qismida zirk, chilonjiya, lavr yaprog’i, anor, anjir, olma kabi turli meva va manzarali daraxtlar bor. Yerdan samarali foydalanish maqsadida erta bahorda qazib olingan kartoshka o’rniga beda va suli ekilib, xonadondagi 20 ga yaqin qo’y-qoramol hamda 50 ga yaqin parranda uchun ozuqa g’amlanyapti. Yerdan unumli foydalanish ishlari takroriy ekinlar ekish bilan ham davom ettirilmoqda.

Yangiqo’rg’on tumani Ravot mahallasida istiqomat qiluvchi, mehnati, tashabbuskorligi va tadbirkorlik faoliyati bilan mahalla ahliga namuna bo’layotgan, yangi ish o’rinlari yaratish va aholi farovonligini ta’minlashda alohida o’mak ko’rsatayotgan Qurbonali Meliboyevni mahalladoshlar juda hurmat qilishadi. Beshta xorijiy tilni mukammal egallagan Qurbonali qator maishiy xizmat va oziq-ovqat shoxobchalari ochib, 20 dan ortiq mahalladoshini ish bilan ta’minlagan. Saxovatpeshaligi va tashabbuskorligi bilan yaxshi tanilgan Tohirjon Yo’ldoshevning dehqonchilik va chorvachilik yo’nalishida tadbirkorlikni keng rivojlantirgani, shu bilan birga, sarimsoq, lola va turli urug’chilik mahsulotlari yetishtirishdagi samarali mehnati diqqatga sazovor.

Ibratli oilalar misolida ko’rish mumkinki, farovonlik faqat tayyor ne’matni kutish bilan emas, balki mavjud imkoniyatdan oqilona foydalanish, yerga mehr bilan ishlov berish, har bir xonadonni obod maskanga aylantirish va farzandlarga mehnatsevarlik namunasini ko’rsatish bilan yaratiladi. Eng muhimi, bu xonadonlarda yetishtirilayotgan meva-sabzavot, gul va ko’chatlar oila ehtiyojini ta’minlash bilan birga, kelajak avlod uchun ham ezgu meros bo’lib xizmat qilmoqda. Zero, obod

xonadon — obod mahalla, obod mahalla esa farovon yurt demakdir.

Namangan shahrining “Uch favvora” maydonida poytaxt san’atkorlari ishtirokida gala-konsert boshlanadi. “Nihol” mukofoti sovrindori Adolat Ismoilovning xalqona qo’shig’iga barcha ishtirokchi qizlar jo’r bo’ladi:

— Namanganning olmasi, anori bordir-ey...

“Shijoat” loyihasi bilan

Yangiqo’rg’on tumanining Nanay qishlog’i qo’shni Qirg’izistonning Karvon va Olabuqa tumanlari bilan chegaradosh. 16 mingga yaqin aholi istiqomat qilayotgan bu so’lim qishloqdagi “Musaffo” madaniyat saroyida bo’lib o’tgan bayram tadbirida O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist Turg’un Beknazarovning ijrosidagi kuy-qo’shiqlar markazning Sherali Normirzayev rahbarligidagi yoshi ijrochilari qo’shiqlariga ulanib ketdi.

Tumanning tog’ qismida, bahavo adirlarda joylashgan 9201-harbiy qism askarlari ham “Mustaqillik to’yi” festivalining ajoyib ishtirokchilari bo’ldi. Poytaxtdan kelgan mehmonlar va namanganlik ijodkorlar taqdim etgan qiziqarli kitoblar hamda ota-onalar bilan diydorlashuv askarlarga xushnudlik baxsh etdi.

Harbiy qismda askarlik burchini o’tayotgan buxorolik Shohruebek va Zilolaxon Navro’zovning ikki farzandi bor. Maroqli konsertdan huzurlanib, Zilolaxon bunday deydi:

— Harbiy xizmatchining oilasi bo’lish sharaflari.

Mana shu yonimizdagi tog’lar ortida boshqa davlat odamlari yashaydi. O’zbeku qirg’iz ayollar to’y-bayramlarni birga nishonlaymiz. Turmush o’rtog’im Vatan himoyasida bo’lsa, biz bolalarni



— bo’lg’usi Vatan himoyachilarini tarbiyalaymiz. Tinch va osuda yurtning bayramlari ko’p bo’lsin!

O’zbekiston xalq artisti Muhammadsoli Yusupovning “Askar yigit” monologi yangraydi, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist Turg’un Beknazarovning “Onajonim” ashlusi esa davraga fayz bag’ishlaydi.

“Ziyorat odobi” loyihasi doirasida Chortoq tumanidagi Uvays Qaraniy ziyoratgohida ziyorat maskanlarining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati, ajdodlarimiz merosini asrab-avaylash, ziyorat odoibiga rioya qilish hamda milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan munosabatda bo’lish masalalari haqida fikr almashildi. Loyiha doirasida ishtirokchilarga ziyorat madaniyati, ezigulik, shukronalik va insoniy fazilatlar targ’ib qilinib, Uvays Qaraniy ziyoratgohining tarixiy hamda ma’naviy ahamiyati haqida ma’lumot berildi.

Namangan tumanining Pastki Qiyot mahallasida istiqomat qilayotgan Toshpo’latovlar xonadonida “Shijoat” loyihamiz “Qahramonlar barhayot” shiori bilan davom etdi.

Biz 2000-yilning avgust-sentabr oylarida Surxonodaryoning Sariosiyo va Uzun tumanlarida terrorchi bosqinchilarni bartaraf etishda maxsus batalyon shaxsiy tarkibida jangovar topshiriqni bajarayotib, qahramonlarcha halok bo’lgan oddiy askar Kamoliddin Toshpo’latovning xonadonidamiz. Kamoliddinning onasi Ma’muraxon Toshpo’latova boshlang’ich sinf o’qituvchisi bo’lgan hamda Kamoliddin to’rtinchi sinfda o’qib yurgan vaqtda vafot etgan. Bolaligida ona mehriga to’ymagani sababli “Mehrbora oladigan qizga uylanaman”, deb oldiga maqsad qo’ygan Kamoliddinning taqdiri o’ziga matematika fanidan saboq bergan o’qituvchining qizi Gulnozaxon bilan tutasdi. Boshlang’ich sinf o’qituvchisi bo’lgan Gulnozaxon ham turmush o’rtog’i halok bo’lgan vaqtda tug’ilajak farzandi va ikki yoshli o’g’li Umidjon bilan yolg’iz qolgan edi. Hayot so’qmoqlarida ko’pgina qiyinchiliklarni yengib o’tgan Gulnozaxonning bugungi kunda ishongani va suyanan tog’lari alp qomatli ikki o’g’lidir. Farzandlarining kattasi Umidjon axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yuritmoqda.

Kichigi Mirkomil esa Favqulodda vaziyatlar vazirligining Namangan tumani bo’limida bosh inspektor lavozimida xizmat qilmoqda.

Qaysi yurtning farzandlari bilimdon va zakovatli bo’lsa, o’sha yurtda rivojlanish bo’ladi. Yangi o’quv yiliga shay qilib tayyorlanayotgan Namangan davlat pedagogika instituti auditoriyalari va o’quv-laboratoriya xonalarida talabalar hamda ustozlar bilan suhbatlashdik.

Suhbat jarayonida “Mirzo Ulug’bek vorislari” respublika tanlovining 5 g’olibi, jumladan, xorijiy til va adabiyoti yo’nalishi talabasi Madina Toshmatovanning “Smart bag” hamda “Tour 4 ALL” loyihasi, maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabasi Umda Yo’ldoshevning



“Ekoqum” va “Ekoplastin” loyihasi, tasviriy san’at va muhandislik mutaxassislgi magistri Shahlo Mamajonovanning “San’at asarlari himoyachisi” innovatsion loyihasi bilan qo’lga kiritgan yutuqlari va yangi rejalarini tinglab quvondik.

Bir so’z bilan aytganda, hududi ozoda, gulzoru gulxonaga aylantirilgan oliygohning mehnatu ijodi, bilim olishiyu yashash sharoiti namunali bo’lgan bilimdon va orasta yoshlarining g’alabalaridan quvonayotgan professor-o’qituvchilarning faxr-iftixori ko’nglimizga fayzu shukronalik umidlari va niyatlarini singdiradi.

O’zimizning Ikromxon aka

Namangan va namanganliklar borasida so’z ketganda “Nuroniy” jamg’armasi Namangan viloyati bo’limi raisi, senator Ikromxon Najmiddinov haqida so’zlamasdan iloji yo’q. Chunki uni butun viloyat ahli e’zozlab, “O’zimizning Ikromxon aka” deyishadi.

Biz festival tadbirlari bilan Yangiqo’rg’onda, Chustda yoki To’raqo’rg’onda bo’lamizmi, bu fidoiy insonning xonadonma-xonadon yurib, obodonchilik ishlari, ehtiyojmand oilalar ro’zg’ori, ibratli oilalarning tutumi bilan yaqindan tanishib, xalqning bayram kayfiyatiga kayfiyat qo’shayotganiga va elu yurtning og’ir-yengil masalalarini joyida hal qilib ketayotganiga guvoh bo’ldik. Shuningdek, otaxonlar bilan gul ekib, bolalarga bayram sovg’alari ulashib, mustaqillik ne’matlari haqida mahalladoshlar bilan qilayotgan gurgunglarini kuzatdik. U Nanay qishlog’idagi suhbatda viloyatdagi mavjud 754 ta mahallada “Mahallada obodlik va mehr-saxovat oyligi” doirasida olib borilayotgan ishlar haqida so’zlab, “yettilik” oldida turgan vazifalarga to’xtalar ekan, bunday deydi:

“Bundan 2-3 yil oldin viloyatimizga tashrif buyurgan inson bugungi Namanganni tanimaydi. Yangidan yangi ishlab chiqarish korxonalari, xizmat ko’rsatish infratuzilmalari, barpo etilayotgan bino-inshootlar hamda Yangi

O’zbekiston qiyofasidagi ko’cha va komplekslar barchamizni lol qoldirmoqda. Har qanday taraqqiyot va voqelik tirik tarix saboqlari, qiyoslash, solishtirish va tahlil orqali yorqin namoyon bo’ladi.

Bugungi kunda viloyatimizdagi 72 ta kichik sanoat zonasida tashkil etilgan ishlab chiqarish korxonalarida 75 mingga yangi ish o’rni yaratildi, sanoatda ishlab chiqarish hajmi keskin ortdi. Viloyatda 2017-yilda 180 ta xonadonli 8 ta ko’p qavatli uy qurilgan bo’lsa, 2025-yilda qariyb 170 ta ko’p qavatli uy barpo etildi. Boshqacha aytganda, bir yilning o’zida 8500 ta oila yangi uylarga ega bo’ldi, shu yilning o’zida 8 ta ko’chan to’liq rekonstruksiya qilish boshlandi. Hozir bir necha yildan buyon deyarli yaroqsiz holatga kelib qolgan, o’ta tor Norin-Andijon ko’prigi rekonstruksiya qilinib, 4 tasmasli ko’priklary bunyod etilmoqda. Pop-Namangan yo’lini kengaytirish namanganliklarning ko’p yillik orzusi edi, hozir xorijiy hamkorlar ishtirokida u to’liq rekonstruksiya qilinayapti. Har birimiz vatan ravnaqi yo’lidagi mehnatimiz bilan boshqalarga o’mak bo’lishimiz kerak. Zotan, ziyolilar mustaqillik ne’matlarining qadri va shukronasini elga, yoshlarga yetkazishlari zarur”.

Senator Ikromxon Najmiddinovning so’zlarini tinglar ekanman, bor hayotiy tajribasini, umr mazmunini shu yurt taraqqiyotiga bag’ishlagan bu fidoiy insonni namanganliklar qanday hurmat qilishi va e’zozlashiga guvoh bo’ldim. Ikromxon aka qaysi tuman, qaysi mahalla yoki qaysi bir xonadonga bormasin, uni o’zining jigari, otasi yoki birodari kelganday hurmat bilan kutib olishdi. Shularni ko’rib, o’zgalarning tashvish va muammolariga og’rinmay yechim topadigan, eldoshlarning to’yiga yelka tutib, tashvishli kunlarida yonna-yon turadigan insonlar yurtning faxru ziynati ekaniga yana bir bor amin bo’ldim.

Ikki qo’li, o’n barmog’i hunar bo’lgan bu elning, mehnatu nafosatning dunyo yaratqilaridagi eng g’alga namunalarni barpo eta olgan gulu gulzor Namanganning bunday daryodil, mehnatkash insonlari bor ekan, elning etangini kunga ishonch va umidlari yuksalaveradi!



Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda “O’zbekistonda bayramlarning g’oyaviy-ma’naviy mazmunini yanada kuchaytirish va ommalashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi qaroriga ilova sifatida tasdiqlangan “O’zbekistonda bayramlarning g’oyaviy-ma’naviy mazmunini yanada kuchaytirish va ommalashtirish konsepsiyasini samarali amalga oshirish bo’yicha chora-tadbirlar dasturi”da “O’zbekiston bayramlari” kitobini chop etish rejalashtirilgan edi.

Yaqinda ana shu to’plam Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, filologiya fanlari doktori Sultonmurod Olim muallifligida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar

instituti hamda TAFU hamkorligida chop etildi.

Azaldan xalqimizning bayrami ko’p. Har biri alohida shukuh bilan nishonlab kelingan. Biroq davlatimiz mustaqillikka erishmagunigacha tarixiy-an’anaviy

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro’yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-846.
29305 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog’oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro’ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko’chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo’limi: (71) 233-70-98
E-mail: info@yuz.uz
Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05
Devonxona va ishonch telefoni: (71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko’chasi, 41-uy.